



MASHQ DAFTARI 1

4-sinf o'quvchilarining o'qish
savodxonligini baholash bo'yicha
o'tkaziladigan PIRLS xalqaro
tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish
uchun

Hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi/
Viloyat/Toshkent shahar)

Tuman (shahar) _____
_____–sonli maktabning _____–sinf
o'quvchisi _____



Yo'riqnoma

Hurmatli o'quvchi! Siz ushbu mashq daftarini bajarish uchun unda berilgan hikoya yoki maqolalarni o'qib chiqishingiz va o'qiganlaringiz yuzasidan savollarga javob berishingiz lozim bo'ladi. Ba'zi savollar osonroq va ba'zilari esa murakkabroq bo'lib tuyulishi mumkin. Siz barcha savollarga javob berishga harakat qiling.

Siz turli xil savollarga javob berishingiz kerak bo'ladi. Ayrim savollarga 4 ta variantdan iborat bo'lgan harflar bilan belgilanadigan javoblar keltiriladi. Siz o'zingizning fikringizga ko'ra to'g'ri javobga tegishli bo'lgan harfni belgilang.

1 – namunada shunday savol berilgan va namuna tarzda javobni qanday belgilash ko'rsatilgan.

1-namuna

1. Bir haftada necha kun bor?

☐ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Javobda "C" harfi belgilangan, chunki bir haftada 7 kun bor. Agarda sizning javobingiz to'g'riligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, sizning nazaringizda eng to'g'ridek ko'ringan javobni tanlab, keyingi topshiriqqa o'tishingiz mumkin.

Agar siz tanlagan javobingizni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, uning ustiga chizing va to'g'ri deb hisoblagan boshqa javobingizni belgilang hamda keyingi savolga o'ting. Buni qanday bajarishni 2 – namunada ko'rishingiz mumkin.

2-namuna

2. Bir haftada necha kun bor?

☒ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Ayrim vazifalarni bajarishda o'z javobingizni savolning tagidagi maxsus ajratilgan joyga yozishingiz kerak bo'ladi. 3 – namunada shunday savol keltirilgan.

3-namuna

3. Hikoyada aytilayotgan voqea yilning qaysi faslida bo'lib o'tgan?



3-namunada qalam va uning yonida 1 raqami tasvirlangan. Ushbu belgi mazkur savol uchun siz 1 ball olishingiz mumkinligini bildiradi.

4-namunada qalam va uning yonida 3 raqami tasvirlangan. Demak, ushbu savolning to'g'ri javobi uchun 3 ball olishingiz mumkin.

4-namuna

4. Aynan nima hikoyaning oxirini bir vaqtning o'zida ham qayg'uli ham zavqli qilmoqda? O'qiganlaringiz bo'yicha olgan ma'lumotlaringizdan foydalanib, o'z fikringizni tushuntirib bering.



Daftar ikki qismdan iborat. Har bir vazifani bajarishga 40 daqiqadan vaqt ajratiladi. Har bir vazifaning o'rtasida kichik tanaffus beriladi.

Hamma savollarga imkon qadar yaxshiroq javob berishga harakat qiling. Agar siz birorta savolga javob bera olmasangiz, keyingisiga o'tishingiz mumkin.



To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.

Yaltiroq Somon

Muallif Daniel Pennak

Qora Alanga nomli boʻrining yettita bolasi bor edi. Besh nafar boʻri bolalarining rangi onasining koʻzlari bilan bir xil qizgʻish-sariq rangda edi. Ularni Qizilboshlar deb nomlashar edi. Oltinchi boʻri bolasi - Moviy Boʻrining rangi muzlagan suv kabi moviy rangga ega edi. Yettinchisi, kichik sariq urgʻochi boʻri, oltin nuriga oʻxshar edi. Unga qarab koʻzlaringiz yumilib ketardi. Akalari uni Yaltiroq Somon deb atashardi.

Boʻri bolalari yosh boʻrilar boʻlib ulgʻaydilar. Ammo ular hech qachon inson qiyofasini yaqindan koʻrmagandilar. Ular odamlarni eng baland tepalikning qoyasidan kuzatardilar. Ularning ikki oyoqda yurishlarini koʻrgandilar. Ammo ular yaqindan qanday koʻrinadilar?

Ularning onasi ularga baʼzida odamlar haqida hikoyalar aytib berardi, bu ularga tushunarsiz edi. Bir marta u ularga: “Inson - bu kolleksioner”, - dedi

Ovchi sifatida Yaltiroq Somon eng yaxshisi edi. U Qizilboshlardan tezroq edi. Uning koʻzlari va quloqlari Qora Alanganikidan koʻra yaxshiroq va burni Moviy Boʻrinikidan koʻra sezgirroq edi.



U birdaniga to'xtab burni bilan hidlab: "Sichqon bor!" - derdi. "Qayerda?" - deb so'rashardi Qizilboshlar.

"Ana u yerda!" U uch yuz metr naridagi joyga ishora qilardi. U yerga yetib borganlarida, sichqonni yer ostida yashiringan holda topardilar.

Qizilboshlar hayratga tushar edilar. "Qanday bilding?"

"Burnim bilan", - deb javob berardi u.

Yozda, ular o'rdaklarni ovlayotganda, Qizilboshlar o'ljalari tomon ohista suzishar, faqat burunlarining uchlari chiqar edi. Odatda o'rdaklar ularning shundoqqina burunlari tagidan qutulib uchib ketishardi. Yaltiroq Somon daryo bo'yida, sariq maysalar orasida, mushuk kabi kutar edi. O'rdaklar esa suvga botib, og'irliklaridan zo'rg'a ko'tarilar edilar. Eng semiz o'rdak uning boshi ustidan uchib o'tayotganda esa - harakat!

"Buni qanday qilib uddalading?" - deb so'rardi Qizilboshlar.

"Ko'zlarim bilan!" - deb javob berardi Yaltiroq Somon.

Uning oyoqlari shunchalik tez ediki, u hatto quyonlarni ham ushlay olardi - buni oldin hech bir bo'ri uddalay olmagan.

Shuncha mahoratiga qaramay, Yaltiroq Somon sodda imkoniyatlarni qo'ldan boy beraredi. U charchagan qari bug'uni ta'qib qilayotgan payti, birdaniga diqqatini tepada uchib ketayotgan qushga qaratar edi. U yuqoriga qararkan, oyoqlari chalishib yiqilib ketar, yerga dumalagancha u kulib yuborar edi.

Bir kuni Moviy Bo'ri shikoyat qildi: "Sen hech narsani jiddiy qabul qilmaysan".

"Sizlar esa hech qachon narsalarning kulgili tomonini ko'rmaysizlar", - deb javob berdi u.



Uning javobi Moviy Bo'riga yoqmadi. "Nimaga buncha ko'p kulayapsan, Yaltiroq Somon?"

U Moviy Bo'ring ko'ziga tik qaradi va javob berdi: "Chunki men zerikdim. Hech qachon hech narsa sodir bo'lmayapti; Hech narsa o'zgarmayapti!"

Yaltiroq Somon zerikkandi u yangi narsani ko'rmoqchi bo'lgan edi. U odamlarni yaqindan ko'rishni xohlar edi.

Bir kuni kechasi unda bu imkoniyat paydo bo'ldi. Bir guruh ovchilar bo'ri oilasi izidan tushdi. Ovchilar bo'ri uyasiga yaqin joylashgan yaylovda lager qurib joylashdilar. Yaltiroq Somon ularning olovidan chiqqan tutunni sezdi. Unga hatto quruq yog'ochning qarsillagan ovozi eshitilar edi.

"Bo'ldi, men kettim, - dedi u o'ziga o'zi, - tong otguncha qaytib kelaman. Nihoyat, ularning qanday ko'rinishini ko'rishim kerak. Menda hayotni yanada qiziqarli qiladigan hammaga aytib beradigan hikoyam bo'ladi".

Moviy Bo'ri uyg'onganida uning ketganiga bir soatcha bo'lgan edi va Moviy Bo'ri bu yerda bir gap borligini sezdi. U darhol tushundi.

"Unga yetib olishim kerak", - deb o'yladi Moviy Bo'ri. Ammo u o'z vaqtida unga yeta olmadi.

U ovchilar lageri yoniga kelganida, daraxt ostida osilib turgan qalin arqon bilan bog'lab qo'yilgan to'r atrofida turgan odamlarni ko'rdi. To'r ichida jahl bilan tishlarini g'ijirlatayotgan Yaltiroq Somon bor edi. Itlar maroq bilan to'r ostidan past-baland sakrashardi.

"Agar men arqonni tishlasam, - deb o'yladi Moviy Bo'ri, - to'r pastga itlarning o'rtasiga tushadi. Yaltiroq Somon itlardan ko'ra chaqqon, va biz qochib ketamiz". Moviy Bo'ri bo'rilar yoqtirmaydigan ish - olov ustidan sakrab o'tishi kerak edi. Ammo bu yagona yo'l edi va uni tezda bajarish kerak edi. Qo'rqishga vaqt yo'q edi. U hammani hayratda qoldirishi kerak edi.

Moviy Bo'ri sakradi va balandda, olov ustida, odamlar va to'rning tepasida paydo bo'ldi. U bir urinish bilan arqonni tishlab yirtib: "Yugur, Yaltiroq Somon!" deb qichqirdi.

Odamlar va ularning itlari hali ham tunning havosida hayratda edilar.

Yaltiroq Somon ikkilanib qoldi. "Kechir, Moviy Bo'ri, men ..."

Soʻngra jang boshlandi. Moviy Boʻri ikkita itni olovga uloqtirdi. “Yugur, oilamizga gʻamxoʻrlik qil!”


Moviy Boʻri Yaltiroq Somonning sakrab oʻtganini koʻrdi. Keyin u tun qarida koʻzdan gʻoyib boʻldi.

Xursandchilik qilish uchun vaqt yoʻq edi. Uning qarshisida bir odam qoʻlida tayoqni silkitgancha turar edi. Kutilmagan zarba qattiq taʼsir qildi. Moviy Boʻri oʻzini xuddi boshi portlaganday his qildi. Keyin yulduzlar bilan toʻlgan zulmat qopladi va u aylanib yiqilib tushdi.

Hushiga kelganda, u yolgʻiz edi. U hayvonot bogʻida paydo boʻldi, atrofida unga notanish boʻlgan hayvonlar oʻzi kabi qafaslarda oʻtirardi.

“Inson - bu kolleksioner”.

Endi u onasining soʻzlarini maʼnosini tushundi.



1. Nima uchun kichik urg'ochi bo'ri Yaltiroq Somon deb nomlandi?

- Ⓐ Uning ko'zlari oltin nuriday edi.
- Ⓑ Uning yungi oltin nuriday edi.
- Ⓒ U oltin nuriday tez edi.
- Ⓓ U oltin nuri bilan o'ynardi.

2. Nima Yaltiroq Somonni boshqa bo'rilardan ko'ra yaxshiroq ovchiga aylantirdi?

- Ⓐ U boshqalar uxlayotganda qochib ketardi.
- Ⓑ U har bir imkoniyatni jiddiy qabul qilardi.
- Ⓒ U onasining hikoyalarini e'tibor bilan tinglardi.
- Ⓓ U tezkor va kuchliroq sezgilarga ega edi.

3. Ov paytida Yaltiroq Somon "sariq maysalar orasida, mushuk kabi" yotardi. Nima uchun bu yaxshiroq ovchi bo'lishga yordam berardi?



4. Yaltiroq Somon oldin boshqa boʻrilar tuta olmagan qaysi hayvonni tuta olardi?

- Ⓐ bugʻular
- Ⓑ quyonlar
- Ⓒ oʻrdaklar
- Ⓓ sichqonlar

5. Nima uchun Yaltiroq Somon baʼzida muvaffaqiyatli ov qilishda eng sodda imkoniyatlarni qoʻldan boy berardi?

- Ⓐ U juda balandga sakrardi.
- Ⓑ U chalgʻib ketardi.
- Ⓒ U qoʻrqib ketardi.
- Ⓓ U yoʻldan adashib qolardi.

6. Moviy Boʻrining Yaltiroq Somonga shikoyati nima edi?

- Ⓐ U hech narsani jiddiy qabul qilmasdi.
- Ⓑ U qichqirib kulardi.
- Ⓒ U Moviy Boʻridan koʻra koʻproq hayvonlarni topardi.
- Ⓓ U boshqa boʻrilardan koʻra tezkor edi.

7. Yaltiroq Somon zerikkani uchun nima qilishni xohlardi?

- Ⓐ eng yaxshi ovchi bo'lishni
- Ⓑ insonlarni yaqindan ko'rishni
- Ⓒ kulish uchun narsalar topishni
- Ⓓ kolleksioner bo'lishni

8. Ovchilar Yaltiroq Somonga nima qilishdi?

- Ⓐ uni hayvonot bo'giga yuborishdi
- Ⓑ uni yo'goch bilan urishdi
- Ⓒ uni to'r ichiga bog'lashdi
- Ⓓ uni daryoga uloqtirishdi

9. Moviy Bo'ri Yaltiroq Somonni qutqarishga yordamlashish uchun qaysi **ikkita** ishni qildi?



1.



2.

2
1
0
8
9

10. Nima uchun Yaltiroq Somon “Kechir, Moviy Bo’ri” dedi?



11. Nima Moviy Bo’riga onasining “Inson - bu kolleksioner” degan soʻzlarini tushunishga majbur qildi?

- ☐ (A) U uygʻonganida yolgʻiz edi.
- ☐ (B) U hayvonot bogʻida uygʻondi.
- ☐ (C) U ovchilarni yaqindan koʻrdi.
- ☐ (D) U Yaltiroq Somonni toʻr ichida koʻrdi.

12. Siz Yaltiroq Somonni tasvirlashingiz mumkin boʻlgan quyidagi soʻzlardan **birini** tanlang.

Tanlovingizni belgilang.

_____ Beparvo

_____ Qiziquvchan

_____ Mard

U hikoyada sodir etgan qaysi ishlar sizni shunday oʻylashga majbur qilganini tushuntiring.



1
0
8
9

2
1
0
8
9

13. Siz Moviy Bo‘rining aytgan va qilgan ishlaridan u haqida bilib oldingiz.

Moviy Bo‘rining qandayligini tasvirlab bering va u aytgan yoki qilgan ishidan **ikkita** misol keltiring.



14. Sizningcha, *Moviy Bo‘ri* sarlavhasi *Yaltiroq Somon* sarlavhasidan yaxshiroqmi?
Tanlovingizni belgilang.

_____ Ha

_____ Yo‘q

Nima uchun hikoya sizni shunday o‘ylashga majbur qildi?



3
2
1
0
8
9

2
1
0
8
9



To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.



Akulalar

Aksariyat odamlar akulalar haqida o'ylashganda, jag'lar va tishlarni tasavvur qiladilar. Ko'pgina akulalarning kuchli jag'lari va o'tkir tishlari bor. Ba'zi akulalar qalin po'latni uzadigan darajada qattiq tishlaydilar va ular hech qachon yangi tishlarsiz qolmaydilar. Akulaning jag'ida ketma-ket joylashgan yigirma qatorli tishlari bor. Akulaning tishi sinsa yoki tishsiz qolsa, uning o'rniga boshqa tish oldinga siljiydi. Ba'zi akulalar tishlarini birma-bir almashtirsa, boshqalari bir vaqtning o'zida butun qatorni almashtiradilar.

Akulalarning nima bilan oziqlanishlari, ularning qayerda va qanday yashashiga bog'liq. Ba'zilar katta og'izlari bilan suzib

yurgan mayda hayvonlar va o'simliklarni bittada yeb tashlaydilar. Ba'zilar o'tkir uchli tishlari bilan baliqni tutib oladigan tezkor suzuvchilardir.

Boshqalari qirg'oqlardan tyulenlar, delfinlar va dengiz qushlarini qidiradilar. Ko'pchiligi okean tubida yashovchi akulalar bo'lib okeandagi qisqichbaqalar va molyuskalar bilan oziqlanadilar. Barcha akulalar boshqa hayvonlarni yeydilar.




Yo'lbars akula, kuchli va o'tkir tishlari bilan avtoulavlarga tegishli raqamlar va bo'yoq qutilari singari har qanday yutishi mumkin bo'lgan narsani yeyishi aytiladi. Unga axlat quti akula laqabi berilgan.

Nima uchun akulalar bunchalik yaxshi ovchilar

Akula ajoyib sezgilarga ega, bu esa uni dunyoning eng yaxshi ovchilaridan biriga aylantiradi.

Eshitish

Tovush quruqlikka nisbatan suvda besh marta tezroq va uzoqroq masofaga eshitilganligi sababli, eshitish akulaga o'z o'ljasi haqida ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Odamlardan farqli o'laroq, akulalar past chastotali tovushlarga sezgir bo'lgan ikkita ichki quloqqa ega. Ular 900 metr uzoqlikdagi yaralangan baliqning suvda pitirlaganini eshitadilar.



Tegish


Akulalar ikki xil tegish sezgisiga ega. Birinchi tur - bu issiq yoki sovuq, qo'pol yoki silliq bo'lishni his qilganingizda teginish tuyg'usiga o'xshaydi. Akula, shuningdek, o'ziga xos "masofaviy" tegishni ishlatadi. Bu masofadan tegish sezgisi akula biror narsaga tegmasdan oldin uning harakatini his qilishiga imkon beradi.

Ko'rish

Okean tubida ko'rish oson emas, chunki suv ko'pincha loyqa va xira bo'ladi. Akulaning ko'zlari bu suv osti dunyosiga juda mos keladi, chunki akula ko'zining orqa tomonida ko'zguga o'xshash yuza qatlam mavjud. Ushbu yuza qatlam ko'zni yoritib turuvchi yorug'likni aks ettiradi va akulaga xira nurda ko'rishga yordam beradi. Yuza qatlamdan tushayotgan yorug'lik ba'zi akulalarning ko'zlarini qorong'ida yarqiragandek ko'rsatadi, xuddi mushuklarning ko'zlari kabi.

Hid bilish

Akulalar "suzuvchi burunlar" ga o'xshaydi va suvdagi oz miqdordagi qonni ham aniqlay oladi. Hid bilish - akulaga o'lja haqida ogohlantiruvchi birinchi sezgi hisoblanadi. Akulaning hidni bilish qobiliyati och qolganida oshib boradi. Aslida, akula miyasining yarmi uning hid bilish sezgisiga moslashgan.




Ta'm bilish

Akulalar, shuningdek, o'zlarining ta'm sezgirligiga juda ishonishadi. Ko'pincha akula biror narsa iste'mol qilishdan oldin, avvaliga "sinov tishlam"ni amalga oshiradi. Og'izda to'plangan sezgir ta'm nishlari yemishni tahlil qiladi. Akulalar, odatda, bu birinchi tishlamdan keyin odatiy yemishlari bo'lmagan o'ljani rad etadilar (masalan, odamlarni).

Elektroretsepsiya

Bu "oltinchi" tuyg'u boshqa sezgi bilan oson topilmaydigan o'ljani topishga yordam beradi. Akulalarning boshlarida va pastki jag'larida yuzlab mayda g'ovaklari mavjud. Bu kichkina g'ovaklar barcha tirik hayvonlar uzatadigan kichik elektr signallarini qabul qiladi. Ushbu signallar akulani o'z o'ljasiga yo'naltiradi.


Akulalarning 450 ga yaqin turi ma'lum va olimlar hali kashf qilinmagan boshqa turlar ham bo'lishi mumkin deb o'ylaydilar. Quyida 3 xil turdagi akulalar haqida o'qing.



Kitsimon akula

Bu akulaning eng katta turi va okeandagi eng katta baliqdir. Uning uzunligi 18 metr va og'irligi 20 tonna bo'lishi mumkin. Bu ulkan tirkamali yuk mashinasining o'lchami! Kattaligiga qaramay, kitsimon akula odamlar uchun zararsizdir. Kitsimon akula ba'zi kitlar singari filtr-xo'randa bo'lganligi uchun bu nomni olgan. Bu degani, u 2 metr keladigan keng og'zini ochadi va minglab tonna dengiz suvidan plankton va mayda baliqlarni filtrlaydi.

Bolg'abosh akula



Bolg'abosh akula dengizdagi g'aroyib ko'rinishdagi baliqlardan biridir. Uning keng, yassi tumshug'i chindan ham bolg'aning boshiga o'xshaydi. Uning ko'zlari, burun teshigi va elektoretseptorlari ushbu "bolg'a bosh"ning chetida joylashgan. Boshini oldinga va orqaga silkitib, akula atrofidagi narsalar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. 9 turdagi bolg'abosh akulalar mavjud bo'lib, ularning uzunligi 1 dan 6 metrgacha bo'lishi mumkin. Ko'pgina bolg'abosh akulalar yolg'iz suzishadi va baliqlarni, shu jumladan boshqa akulalarni ham yeyishadi!

Katta oq akula

Katta oq akula eng mashhur akulalar turlaridan biri. Uning 50 ta tishi bor va ular boshqa har qanday akula tishlariga qaraganda kattaroqdir - uzunligi 6 santimetr! U bu tishlarni asosan dengiz sherlari va tyulenlarni yeyish uchun ishlatadi. Katta oq akulalar kattaligi jihatidan akulalar orasida uchinchi bo'lib, uzunligi taxminan 6 metr. Ular issiq tanali, bu issiq qonli bilan bir xil emas. Bu shuni anglatadiki, akulaning tana harorati uning atrofidagi suvga qaraganda iliqroq bo'ladi va bu unga tezroq suzish uchun ko'proq energiya beradi.



1. Matnning boshida sizga akulaning tishlari haqida aytilgan **ikkita** narsani yozing.



1.



2.

2. Maqolaga ko'ra, akulalar yeydigan **uch** turdagi hayvon qaysi?



3. Nima uchun yo'lbars akula "axlat quti akula" deb ataladi?



Uning tishlari axlat qutisini kesishi mumkin.



U xuddi axlat qutisiga o'xshab hid taratadi.



U siz axlat qutisida topishingiz mumkin bo'lgan narsalarni yeydi.



Uning shakli axlat qutisiga o'xshaydi.

2

1

0

8

9

1

0

8

9

4. Akula o'z o'ljasini topish uchun **birinchi** qaysi sezgisini ishlatadi?

- (A) eshitish
- (B) ko'rish
- (C) ta'm bilish
- (D) hid bilish

5. Nima uchun akulaning ko'zlari qorong'ulikda yarqiragandek ko'rinadi?



6. Nima uchun akula biron narsani yeyishdan oldin "sinov tishlam" ni amalga oshiradi?

- (A) Tishlariga zarar bermasliklariga ishonch hosil qilish uchun.
- (B) Ular o'ljasini yeyishni xohlashlarini bilish uchun.
- (C) Ular o'ljasini suzib ketishdan saqlash uchun.
- (D) O'zlarining yetarlicha ochligini bilish uchun.

1
0
8
9

7. Akulaning tegish va eshitish sezgilari odamning tegish va eshitish sezgisidan qanday farq qiladi? **Har bir** sezgi uchun **bitta** usulni tushuntiring.

 1 Tegish

 1 Eshitish

8. Akulaning o'ljasi tosh ostiga yashiringan va qimirlamayapti. Akula uni qanday sezgisi bilan aniqlashi mumkin?

- ☐ (A) ko'rish
- ☐ (B) masofaviy tegish
- ☐ (C) eshitish
- ☐ (D) elektroretsepsiya

9. Qanday qilib yozuvli rasm nima uchun akulalar bunday yaxshi ovchilar ekanligini tushuntirishga yordam beradi?

- ☐ (A) U akulaning tana a'zolarini nomlaydi.
- ☐ (B) U akulaning sezgilari nima qila olishini aytadi.
- ☐ (C) U akulaning qanday ko'rishini tushuntiradi.
- ☐ (D) U akulalar qanchalik katta bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

10. Och akula tyulenlarni ov qilmoqda. U **ta'm**, **ko'rish** va **hid bilish** sezgilaridan qanday tartibda foydalanadi?

Maqoladagi ma'lumotlardan foydalanib, nima uchun u o'z sezgilarini ushbu tartibda ishlatishini tushuntiring.



11. Maqolada aytilishicha, ba'zi akulalar juda katta og'izlari bilan mayda suzuvchi hayvonlarni bir urinishda yeb tashlaydilar. Qaysi akula yemish uchun shu tarzda ov qiladi?

- ☐ A yo'lbars akula
- ☐ B kitsimon akula
- ☐ C bolg'abosh akula
- ☐ D katta oq akula

2
1
0
8
9

12. Quyidagi jadvalda maqoladagi turli xil akulalar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Jadvalni to'ldirish uchun bo'sh joylarga yozing.



Akula turi	Uzunligi	Yemishi	O'ziga xos xususiyati
Kitsimon akula			eng katta akula
Bolg'abosh akula	1-6 metr		
	6 metr	dengiz sherlari va tyulenlar	

Seymour Simonning "Sharks" asaridan olingan. 1995-yil HarperCollins tomonidan, New Yorkda nashr qilingan. Mualliflik xuquqi asosida. Bolg'abosh akula va kitsimon akula suratlari © Doug Perrine / seapics.com; Katta oq akula surati © James D. Watt / seapics.com., yo'lbars akula surati © David Fleetham / davidfleetham.com., tuproq qum yo'lbars akula surati © Norbert Wu dan olingan. Barchasi mualliflik xuquqi asosida.





To'xtang

Baholash daftarining ushbu qismi tugadi. Iltimos, ishlashni to'xtating.

“Yaltiroq Somon” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?

*Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐

“Akulalar” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?

*Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐

